O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU. ILMIY XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

amaliy tajribalar 82
D.A.Djurakulova
Chet tili universitetlarida mustaqil ta'lim samaradorligini belgilovchi psixologik va pedagogik omillar 87
A.R.Dilbarjonov
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy sherikchilikning roli 92
N.B.Dusimbetova, S.D.Qayimova
Jurnalistika ta'limida transmedia ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari 95
M.Sh.Dehqonova
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini mantiqiy masalalar yechish jarayonida rivojlantirish 99
B.Q.Qurbonova
Oliy ta'limda inklyuziv muhitni shakllantirishning pedagogik va psixologik shart-sharoitlari 102
M.I.Madraximova
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik amaliyot jarayonida rivojlantirish 106
Z.Q.Abdullayeva
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda reflektiv tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi 110
О.А.Васильченко
Дирижерский жест как средство музыкального выражения в хоровом исполнении 114
S.R. Shermatova
Oliy ta'lim jarayonida klasterli yondashuvdan foydalangan holda induktiv va deduktiv tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish metodlari 120
M.Nasritdinova
Artpedagogik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligini aniqlashga qaratilgan diagnostik usulni amaliyotga tatbiq etish 124
D.Sh.Jo'raboyeva
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar 129
U.I.Obidjanov
Tabiiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning samaradorligi: tajriba-sinov natijalari 134
J.M.Otajonov
Рефлексия как философский феномен связи личности и общества 139
M.A.Nurmatova
Universal metakompetentlikning pedagogik asoslari va rivojlantirish imkoniyatlari 146
S.B.Tangirqulov
Maxsus ta'lim tizimida zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkur asosida nogironligi bo'lgan o'quvchilarning musiqa madaniyatini rivojlantirish istiqbollari 151
Z.N.Asqarova
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning akt kompetensiyasini rivojlantirish 156
N.Sh.Rustamova
Rus tilini chet tili sifatida o'qitishda og'zaki bo'lmagan kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodikasi (boshlang'ich bosqich) 160

FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University
Volume 31 Issue 5, 2025-yil DOI: 10.56292/SJFSU/vol31_iss5/a23
UO'K: 070:378.147:316.77

JURNALISTIKA TA'LIMIDA TRANSMEDIA KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ТРАНСМЕДИЙНЫХ НАВЫКОВ В ЖУРНАЛИСТСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

METHODS OF DEVELOPING TRANSMEDIA SKILLS IN JOURNALISM EDUCATION

Dusimbetova Nargiza Baxtiyarovna[1]
[1]O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Xalqaro jurnalistika fakulteti katta o'qituvchi

Qayimova Sevara Dilshod qizi[2]
[2]O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Xalqaro jurnalistika fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada globallashuv sharoitida jurnalistika ta'limida transmedia kompetensiyasini shakllantirish masalasi yoritilgan. Mualliflar bu atamaning nazariy va amaliy jihatlarini, uning auditoriya bilan muloqotdagi afzalliklarini tahlil qiladi. Talabalarda nazariy bilim, amaliy ko'nikma, texnik savodxonlik va ijodiy fikr uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Shu yo'l bilan raqobatbardosh va global fikrlaydigan mutaxassislar tayyorlanishi ta'lim jarayonining asosiy maqsadi sifatida belgilanadi.

Аннотация

В данной статье рассматривается проблема формирования трансмедийной компетентности в журналистском образовании в условиях глобализатsiu. Авторы анализируют теоретические и практические аспекты данного понятия, его преимущества в коммуникатsiu с аудиторией. Подчеркивается, что сочетание теоретических знаний, практических навыков, технической грамотности и творческого мышления студентов имеет большое значение. Таким образом, подготовка конкурентоспособных и глобально мыслящих специалистов определяется как главная цель образовательного процесса.

Abstract

This article examines the problem of developing transmedia competence in journalism education in the context of globalization. The authors analyze the theoretical and practical aspects of this concept and its advantages in communicating with an audience. They emphasize the importance of combining theoretical knowledge, practical skills, technical literacy, and students' creative thinking. Thus, training competitive and globally minded professionals is defined as the primary goal of the educational process.

Kalit so'zlar: *Transmedia kompetensiya, media konvergensiya, amaliyot va nazariya uyg'unligi, kasbiy mahorat, leksik kompetensiya, innovasion metodlar, jurnalist kadrlar tayyorlash.*

Ключевые слова: *трансмедийная компетентность, медиаконвергенция, гармония практики и теории, профессиональные навыки, лексическая компетентность, инноватsionные методы, журналистская подготовка.*

Key words: *Transmedia competence, media convergence, harmony of practice and theory, professional skills, lexical competence, innovative methods, journalistic training.*

KIRISH

Globallashuv jarayoni dunyo miqyosida kadrlar tayyorlash tizimiga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Bugungi sharoitda ta'lim shakllarini optimallashtirish, pedagogik samaradorlikni ta'minlaydigan texnologik resurslar va innovatsion strategiyalarni qo'llash zarurati dolzarb bo'lib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy jarayonlarning integratsiyasi asosida raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bois o'qitish mazmunini xalqaro standartlarga moslashtirish, kelajak mutaxassislarning ijtimoiy-madaniy va lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim tizimining muhim vazifasiga aylanmoqda[1].

PEDAGOGIKA

Kompetensiya tushunchasi talaba tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalardan kasbiy, ijtimoiy hamda akademik faoliyatda samarali foydalanish qobiliyatini anglatadi. Kompetensiyaviylik esa shaxsning mavjud bilim va malakalarni predmetli faoliyat jarayonida kompleks qo‘llay olish imkoniyatini bildiradi. Zamonaviy jurnalistikada keng qo‘llanilayotgan transmedia yondashuvi turli platformalarda — internet, televidenie, radio va ijtimoiy tarmoqlarda axborot almashinuvini ta’minlaydi. Bu jarayon biror voqea yoki foydalanuvchi bilan ko‘pkanalli o‘zaro aloqani shakllantiradi. Transmedia jurnalistikasi orqali ma’lumotlarni maqola, video, podkast, infografika kabi turli formatlarda taqdim etish mumkin. Shu sababli transmedia kompetensiyasi nafaqat texnologik vositalarni qo‘llashni, balki auditoriya ehtiyojiga moslashgan, ijodiy va samarali kontent yaratish ko‘nikmalarini ham qamrab oladi[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Transmedia kompetensiyasini shakllantirish jarayonida bir nechta muhim elementlar bosqichma-bosqich hisobga olinishi lozim. Avvalo, **nazariy tayyorgarlik** asosiy poydevor sifatida qaraladi. Talabalar transmedia jurnalistikasi konsepsiyasining shakllanishi, uning tarixiy taraqqiyoti, media konvergensiya jarayonlari va turli nazariy yo‘nalishlari haqida puxta bilimga ega bo‘lishi zarur. Bu bosqichda ularning bilimlari kontentning turli platformalarda qanday integratsiya qilinishi, auditoriyaga moslashtirib qanday shaklda taqdim etilishi haqida tasavvurlarini kengaytiradi.

Ikkinchidan, **amaliy mashg‘ulotlar** muhim o‘rin tutadi. Talabalarga bloglar, podkastlar, video-kanallar, onlayn gazetalar, ijtimoiy tarmoqlar kabi platformalarda faoliyat yuritish imkonini beruvchi mashg‘ulotlar tashkil etilishi kerak. Amaliyot davomida ular kontent yaratish, uni texnik jihatdan qayta ishlash, tahrirlash va keng auditoriyaga tarqatish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Uchinchidan, **ijodiy yondashuv** transmedia kompetensiyasining ajralmas qismidir. Talabalardan turli janr va formatlarda ishlash, ma’lumotni rivojlantirish va uni turli media kanallarda yangicha talqinda taqdim etish talab qilinadi. Bunda asosiy maqsad – auditoriyani jalb etish va ularni har bir platformada qayta-qayta qiziqtira olishdir. Bu esa, aslida, media iste’molchining faol ishtirokchi sifatida jarayonga qo‘shilishini ta’minlaydi.

Shuningdek, **texnik ko‘nikmalar** ham alohida ahamiyat kasb etadi. Grafik dizayn, audio va video montaj, multimedia dasturlaridan foydalanish, ijtimoiy tarmoqlarda kontentni professional tarzda boshqarish kabi malakalar zamonaviy jurnalist uchun zaruriy talabga aylangan. Bunday ko‘nikmalar texnologik savodxonlikni oshirish orqali auditoriyaga sifatli va ta’sirchan mahsulot yetkazish imkonini beradi.

Yana bir muhim jihat – **strategik fikrlash**. Talaba yoki yosh jurnalist har bir platformaning o‘z auditoriyasi va kommunikativ xususiyatlariga ega ekanini bilishi kerak. Shu sababli ular qaysi turdagi kontentni qayerda samaraliroq joylashtirish, qaysi vositalar orqali auditoriyani kengroq qamrab olish mumkinligini aniqlashda strategik yondashuvni qo‘llashi zarur[3].

Bundan tashqari, tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, transmedia kompetensiyasi bevosita **leksik kompetensiya** bilan uzviy bog‘liq. Chunki bu kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning lingvistik komponenti sifatida qaraladi va insonning o‘z fikrini turli lingvistik vositalar yordamida aniq, ravon ifoda etish qobiliyatini anglatadi. Shu o‘rinda **terminologik kompetensiya** ham e’tibordan chetda qolmasligi lozim. U leksik kompetensiyaning kichik bo‘lagi bo‘lib, mutaxassislik sohasiga oid terminlardan to‘g‘ri foydalanish malakasini bildiradi. Masalan, jurnalist talaba “konvergensiya”, “transmedia storytelling” yoki “krossplatforma integratsiya” kabi atamalarni o‘zlashtirib, ulardan ilmiy va amaliy faoliyatda puxta foydalanishni o‘rganishi lozim[4].

Shu tariqa, transmedia kompetensiyasi ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u nazariy bilim, amaliy tajriba, texnik savodxonlik, ijodiy tafakkur va lingvistik malakalarni o‘zida uyg‘unlashtiradi. Bu kompetensiyani shakllantirish orqali nafaqat professional jurnalistlar tayyorlanadi, balki raqamli jamiyatda samarali ishlay oladigan, raqobatbardosh mutaxassislar ham yetishib chiqadi.

Bo‘lajak jurnalistlarda transmedia kompetensiyasini shakllantirish samarali ta’lim modelini loyihalashda **amaliy faoliyat** hal qiluvchi o‘rin tutadi. Chunki nazariy bilimning mustahkamlanishi va zamonaviy kasbiy ko‘nikmalarning shakllanishi bevosita amaliy mashg‘ulotlarga bog‘liqdir. Bunday modelni joriy etishda bir nechta metodik yondashuvlar ajralib turadi.

Birinchidan, **interaktiv va ijodiy loyiha asosidagi ta’lim** talabalar uchun eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Amaliy jarayon davomida ular o‘z jurnalistik maqsadlariga muvofiq turli ko‘rinishdagi transmedia loyihalarni ishlab chiqishlari mumkin: masalan, ijtimoiy tarmoqlar

uchun kontent tayyorlash, multimediali bloglar yaratish yoki qisqa videoreportajlar ishlab chiqish. Bu jarayon nafaqat kasbiy tajribani oshiradi, balki ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ikkinchidan, **onlayn kurslar va treninglar** tashkil etish bugungi kunda dolzarb bo'lib, ular talabalarni yangi raqamli texnologiyalar bilan tanishtirish imkonini beradi. Masofaviy ta'lim resurslari va virtual platformalar orqali talaba mustaqil ravishda transmedia metodlarini o'rganib, o'z malakasini kengaytirishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, transmedia kompetensiyasini shakllantirish jarayoni nafaqat o'qituvchilar va talabalar uchun, balki butun jurnalistika sohasi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu jarayon sohaga moslashuvchanlik olib kirib, jurnalistlarning global media olamidagi o'zgarishlarga tezkor moslashish qobiliyatini shakllantiradi. Transmedia kompetensiyasiga ega bo'lgan bo'lajak mutaxassislar kengroq auditoriyalar bilan ishlash, o'z ijodiy g'oyalarini samarali tatbiq etish va kasbiy muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar[5].

Xorijiy tajribaga murojaat qiladigan bo'lsak, Buyuk Britaniya, AQSH va G'arbiy Yevropaning yetakchi universitetlarida jurnalistika talabalari uchun ingliz tili darslari faqat umumiy lingvistik bilimlarni berish bilan cheklanmaydi. Ular **media discourse**, **professional writing** va **digital storytelling** kabi maxsus kurslar orqali xalqaro kommunikatsion kompetensiyalarni ham shakllantiradilar. Bu yondashuv natijasida talabalar global miqyosda faoliyat yurita oladigan, raqobatbardosh va zamonaviy media bozori talablariga mos mutaxassis sifatida yetishib chiqadi.

Shuningdek, sog'lom kasbiy raqobatni shakllantirish metodikasini takomillashtirish talabalarda **motivatsiya**, **ijodiy tafakkur** va **kritik fikrlash**ni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunday raqobat muhiti o'zaro bilim almashuv, tajriba to'plash va hamkorlik madaniyatini rivojlantiradi. Natijada, bo'lajak jurnalistlarda faqat lingvistik emas, balki **interkultural kompetensiya**, ya'ni turli millat va madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalari ham shakllanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jurnalistlar faoliyat jarayonida deyarli har kuni turli odamlar bilan muloqot qiladi: ular bilan suhbatlashadi, savollar beradi, olingan javoblarga qarab suhbatdoshning yutuqlarini e'tirof etadi, bilim va tajribasini qadrlaydi. Zarurat tug'ilganda esa vaziyatdan kelib chiqib tanqidiy fikrini ham bildirishi mumkin. Albatta, jurnalistning har bir mulohazasi ma'lum darajada subyektivlikni o'zida aks ettiradi, chunki insonning shaxsiy qarashlari va kayfiyati uning professional bahosiga ta'sir ko'rsatishi tabiiydir. Biroq yuqori darajadagi kasbiy mahoratga ega jurnalist har qanday suhbatdoshga nisbatan xolis, adolatli va ezgu niyatli bo'lib ko'rinishi zarur. Muhimi, auditoriya oldida jurnalistning ayrim tinglovchilarni boshqalardan ko'ra ko'proq yoqtirishi yoki aksincha, sovuq munosabatda bo'lishi haqida taassurot paydo bo'lmasligi kerak.

Umuman olganda, har bir jurnalist uchun obro'-e'tibor, kasbiy mahorat, insonparvarlik hamda yuqori darajadagi muloqot madaniyati ajralmas fazilat hisoblanadi. Kasbiy mahorat va muomala madaniyati insonning chuqur bilimlari, yuqori axloqiy fazilatlari, hayotiy tajribasi hamda ilmiy-tadqiqot ishlari va jamoat faoliyatidagi ishtiroki natijasida shakllanib, keng jamoatchilik tomonidan e'tirof etiladigan ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Jurnalistik faoliyat esa o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy jarayon bo'lib, uning asosi muayyan voqelik yoki muammoga nisbatan ijodkorona yondashuv zarurati bilan belgilanadi. Shu bois jurnalistika ijodkorlikning eng muhim ko'rinishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Jurnalistning kasbiy faoliyati doimo ijodkorlik va mustaqil tafakkur bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayon aynan masalalarni yechish, turli muammoli vaziyatlarda samarali yo'l topa olish ko'nikmalarida namoyon bo'ladi. Kasbiy tafakkur esa ijodkorlikning asosi hisoblanib, u avvalo jurnalistning boy tajribasidan kelib chiqadi. Amaliy faoliyat davomida uchraydigan murakkab vaziyatlar jurnalist uchun nafaqat sinov, balki professional rivojlanish maktabi vazifasini ham bajaradi. Aynan shu tajribalar orqali axloqiy va tarbiyaviy maqsadlarga erishish mumkin bo'lib, bunda kasbiy tafakkurning o'rni beqiyos darajada muhim sanaladi.

Kasbiy tafakkur insonning o'z mutaxassisligi va faoliyat sohasi to'g'risida fikr yuritish, mulohaza bildirish, g'oya va farazlarni shakllantirish jarayonida yuzaga keladi. Bu jarayon shaxs ongida tushuncha, hukm va xulosalar ko'rinishida aks etadi. Ijtimoiy hayot va ta'lim tizimida odamlar o'rtasidagi muloqot, aloqa va munosabatlar ham tafakkur faoliyatining mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Bo'lajak jurnalistlarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish uchun esa maxsus

didaktik mexanizmlar, o'qitish jarayonini tizimli tashkil etish, pedagogik ta'sir vositalari hamda samarali boshqaruv zarurdir. Kasbiy madaniyat tuzilishini nazariy asos sifatida o'rganish, ta'lim jarayonida kasbiy tafakkur madaniyatini shakllantirishning didaktik mexanizmlarini aniqlashga imkon beradi.

Mazkur mexanizmlar jumlasiga bir qator omillar kiradi:

- ta'lim jarayoniga "kasbiy tafakkur madaniyati" tushunchasini kiritish va uni jurnalistik faoliyat maqsadlari bilan bog'lash;
- mashg'ulotlar tuzilmasiga muammoli-qidiruv metodlarini joriy etish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni oldindan taxmin qilish va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish;
- o'quv jarayonini subyekt–subyekt munosabatlari asosida tashkil etish.

XULOSA

Natijada, bo'lajak jurnalistlarni tayyorlash jarayonida kasbiy tafakkurni rivojlantirish bilan birga, didaktik faoliyat davomida kasbiy ko'nikma va malakalar bosqichma-bosqich shakllanadi. Bu jarayonning asosiy maqsadi esa shaxsni yaxlit tarzda tarbiyalash, uni o'quv faoliyati jarayonida ijtimoiylashtirish hamda tanlagan kasbiga mos holda kasbiy jihatdan kamol toptirishdan iboratdir.

Bo'lajak jurnalistlardan nafaqat o'z ustida muntazam ishlash, balki kasbiy faoliyatning muayyan turini egallash va zarur holatlarda uni samarali amalga oshirish talab etiladi. Shu sababli, talabalar faoliyati jarayonida "kasb"ni oddiy o'rganish emas, balki mutaxassislikni chuqur o'zlashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy tafakkur madaniyatini shakllantirish jarayoni o'qituvchi va talaba hamkorligini taqozo etadi hamda bir qator didaktik prinsiplar asosida olib borilishi lozim. Jumladan: o'quv jarayonining motivatsion prinsipi, jurnalistik faoliyatning insonparvarlikka yo'naltirilganligi prinsipi, nazariya va amaliyot birligi prinsipi, jurnalist shaxsiy madaniyati bilan kasbiy madaniyat uyg'unligi prinsipi hamda kasbiy yo'nalganlik prinsipi.

Har bir mutaxassisning kasbiy tafakkuri davrning ilmiy-nazariy konsepsiyalari va muammoli fikrlash darajasi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, bu jarayonda pedagogik hodisalarni idrok etishning o'ziga xos usullari shakllanib, ular jamiyatdagi axloqiy me'yorlar, qadriyatlar va ijtimoiy-psixologik mexanizmlar bilan boyitiladi. Bunday yondashuv jurnalist shaxsini faqat kasbiy emas, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan ham rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, media sohasi terminologik leksikasining tarkibiy tuzilishini chuqur o'rganish tilshunoslik uchun nazariy hamda amaliy jihatdan muhim ilmiy xulosalar beradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, jurnalistika va media atamalarida so'z yasalishning o'ziga xos konstruktiv modellarini aniqlash imkoniyati mavjud bo'lib, bu kelgusida milliy terminologiya bazasini boyitish, uni standartlashtirish va ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu tariqa, media terminologiyasining lingvistik tadqiqi nafaqat kasbiy tilni rivojlantirish, balki global axborot makonida o'zbek jurnalistikasining terminologik mustaqilligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Begmatov, E. (1973). *Nutq madaniyati va adabiy norma*. Toshkent: O'zbekiston.
2. Xujaev, A. (2019). *Pedagogikada kompetentlik yondashuvi*. Toshkent: Fan.
3. Jenkins, H. (2006). *Convergence culture: Where old and new media collide*. New York: NYU Press.
4. Renó, D., & Flores, J. (2014). *Periodismo transmedia*. Barcelona: Editorial UOC.
5. Миловидов, С. И. (n.d.). Трансмедийное повествование как текст в сфере массмедиа XX–XXI веков. *СМИ и массовые коммуникатsiu*. Retrieved from https://cyberleninka.ru/article/n/transmediynoe-povestvovanie-kak-tekst-v-sfere-massmedia-xx-xxi-vekov